


FARG'ONA VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 - yil yanvar- oktabr dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10 306,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 313,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,0 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlari tovar aylanmasi 8 992,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 990,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atilari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarda, shuningdek, Qo'shtepa, Oltiariq va Uchko'priq tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi va 1 313,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,7 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 8992,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 3,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektoring jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)



Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi bo‘yicha Qo‘shtepa (99,9 %), Farg‘ona (99,3%) So‘x (99,4) Furqat (98,4 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko‘rinib turibdi.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,7 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg‘ona shahar (27,5 %), Qo‘qon (18,6 %), Bag‘dod tumani (18,1 %) va shaxarlarida kuzatilgan.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg‘ona viloyati	1 313,9	115,0	8 992,6	103,4
shaharlar				
Farg‘ona	729,4	121,0	1 923,3	101,9
Qo‘qon	279,5	110,1	1 225,3	105,4
Quvasoy	12,2	76,9	238,2	107,7
Marg‘ilon	86,2	102,7	765,1	105,9
tumanlar				
Oltiariq	13,4	96,9	389,6	104,7
Qo‘shtepa	0,9	132,2	615,8	103,0
Bag‘dod	64,7	162,2	293,0	93,5
Buvayda	7,0	117,6	357,1	103,3
Beshariq	6,4	97,0	337,7	105,6
Quva	37,8	221,2	454,1	99,0
Uchko‘prik	13,8	212,3	373,0	100,8
Rishton	14,1	57,8	253,3	107,1
So‘x	1,1	165,4	170,4	101,6
Toshloq	17,9	86,4	244,6	106,7
O‘zbekiston	8,0	102,3	296,8	103,7

Farg'ona	2,4	11,0	364,6	109,6
Dang'ara	6,9	108,0	226,5	101,5
Furqat	2,7	103,1	167,1	102,2
Yozyovon	9,3	91,4	297,1	102,9

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019- yil yanvar- oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2 779,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-oktabr oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (9 284,9 ming so'm), Qo'qon (6 014,2 ming so'm) va Marg'ilon (3 659,7 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (1 298,3 ming so'm), Dang'ara (1 369,2 ming so'm) va Toshloq (1 321,8 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlар va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg‘ona viloyati	2 779,5	102,9
shaharlar		
Farg‘ona	9 284,9	104,4
Qo‘qon	6 014,2	104,8
Quvasoy	2 715,5	104,0
Marg‘ilon	3 659,7	104,1
tumanlar		
Oltiariq	1 936,8	102,6
Qo‘shtepa	3 299,6	101,1
Bag‘dod	1 691,6	99,3
Buvayda	1 625,8	101,6
Beshariq	1 532,6	103,6
Quva	1 936,0	101,6
Uchko‘prik	1 721,7	100,7
Rishton	1 344,8	100,6
So‘x	2 239,6	100,0
Toshloq	1 321,8	103,0
O‘zbekiston	1 298,3	101,8
Farg ‘ona	1 751,2	101,6
Dang‘ara	1 369,2	99,9
Furqat	1 462,0	100,7
Yozyovon	2 821,4	100,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 206,3 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % o‘sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. so‘m)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi kuzatilib, nisbatan, Farg‘ona (55,6 %), Qo‘qon(11,5 %), Marg‘ilon (8,9 %) shaharlarida, shuningdek, Uchko‘prik (4,0 %),Rishton (2,2 %) va Oltiariq (1,8 %) tumanlarida qayd etildi.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 142,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019- yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 3 305,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 79,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Besharq , Quva (100,0 %) hamda Oltiariq (99,9 %), Dang'ara (99,8 %) va Uchko'prik (99,4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridagi
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




█ Yirik korxonalar
█ Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik sub'ektlari

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 20,2 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona (48,6 %), Bog'dod (15,9 %) tumanlarida hamda Qo'qon (14,7 %) shahrlida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg‘ona viloyati	4 142,8	108,5	837,3	103,7	3 305,5	108,4
shaharlar						
Farg‘ona	1 528,2	112,6	743,4	100,5	784,8	127,0
Qo‘qon	556,8	118,6	81,7	257,4	475,1	108,5
Quvasoy	69,3	108,9	-	-	69,3	108,9
Marg‘ilon	549,2	107,6	0,1	3,8	549,2	108,0
tumanlar						
Oltiariq	82,9	106,2	0,1	50,2	82,8	106,3
Qo‘shtepa	5,6	109,1	-	-	5,6	109,1
Bag‘dod	42,4	117,8	6,7	26,8	35,6	326,8
Buvayda	61,0	108,6	-	-	61,0	108,6
Beshariq	45,4	106,9	-	-	45,4	106,9
Quva	31,2	102,7	0,6	100,0	30,6	100,8
Uchko‘prik	137,9	97,0	0,8	132,4	137,1	96,9
Rishton	18,2	106,7	0,5	102,7	17,7	106,8
So‘x	2,7	116,4	0,2	51,1	2,5	127,4
Toshloq	217,6	108,4	2,0	110,7	215,6	108,4
O‘zbekiston	522,4	89,7	0,2	67,5	522,2	89,7
Farg‘ona	33,5	92,6	0,2	4,2	33,3	107,0
Dang‘ara	184,6	108,9	0,4	156,2	184,1	108,8
Furqat	21,4	92,6	-	-	21,4	92,6
Yozyovon	32,6	98,1	0,3	150,3	32,3	97,8

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari O'zbekiston (89,7 %), Furqat (92,6 %) va Farg'ona (92,6 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi

Tel.:71-230-87-18